

IIO XODIMLARINING KASBIY BUZILISHINI ANIQLASHDA ZAMONAVIY
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA POLIGRAFDAN FOYDALANISHNING
SAMARADORLIGI

Tupliyeva Maftuna

IIV AKADEMIYASI

Xizmat faoliyatini tarbiyaviy psixologik taminlash yo'nalishi

326 guruh kursanti

Annotatsiya. Maqolada psixologik xizmat asosan, tergov faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida haqiqatni aniqlash samaradorligi. Poligraf qurilmasining imkoniyatlari va qo'llash mumkin bo'lgan sohalari haqida bir qancha ma'lumot berilgan.

Tayanch so'zlar: poligraf, psixosamatika, stress, gidrofigmometr, fiziologik holat, faollik, reaksiya, psixopat, introvert, ekstrovert, zo'ravonlik, shavqatsizlik, bosim, puls, patologik yolg'onchilar, detektor.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan ilk kunlardan oq inson huquqlari, erkinliklarini ta'minlash huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish kabi yuksak vazifani belgilab oldi. Xususan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotning har bir jabhasida inson huquqlari ta'minlana boshlandi. Shunga qaramasdan tergov protsessining haqiqatni aniqlash jarayonida bir qator kamchiliklar ko'zga tashlanmoqda. Haqiqatni aniqlash, asl aybdorni jazolash, adolatni qaror toptirish hamma zamonlarda ham muhim vazifa hisoblangan. Qadimda turli millatlar yolg'on gapirayotgan shaxsni aniqlash uchun hozirda qo'llanilib kelinayotgan detektorlarning ishlash prinsiplaridan foydalanishgan. Misol uchun xitoyliklar gumon qilinuvchining og'ziga bir hovuch guruch solib keyin esa tupurishni buyurishgan. Arablar esa qaynoq holatdagi xanjarni gumon qilinuvchiga yalatishtgan. Agarda gumon qilinuvchi guruchni tupurib tashlaganidan so'ng guruch quruq holatda bo'lsa yoki xanjar gumon qilinuvchining tilini kuydirsa uning og'zi qurigan bo'lib shaxsning yolg'on gapirgani belgisi hisoblangan. Bunday usullar davr o'tgan sayin takomillashib borgan. 1948-yil 10-dekabrda BMT tomonidan qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi"⁶⁰da ham shaxsning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish shaxsga nisbatan hech qanday zo'ravonlik ta'ziq kabi holatlarga yo'l qo'ymaslik qoidasi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 235-moddasi.⁶¹ Qiynoqa solish va boshqa shavqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash deb nomlanib, normada shaxsga nisbatan ma'muriy qamoqqa olingan paytdan boshlab toki jazo belgilashgacha bo'lgan protses davomida g'ayriinsoniy qadr-qimmatni kamsituvchi harakatlarni amalga oshirish qat'iy ta'qiqlanadi. Xususan qo'rqitish, urish, do'pposlash, qiynash, azob berish harakatlari bilan ruhiy, psixologik, jismoniy bosim o'tkazish ta'qiqlangan. Hozirgi kunda esa axborot texnologiyalari ochib berayotgan keng imkoniyatlar sababli bunday ta'ziyq o'tkazishlarga

⁶⁰ BMT "inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi";

⁶¹ O'z. Res. Jinoyat kodeksi 235-modda

aslo o'rin yo'q. Yolg'onni aniqlaydigan ilk qurilma "gidrofigmometr" deb nomlanib italiyalik olim Chezare Lombrozo tomonidan yaratilgan⁶². Zamonaviy poligraf qurilmasi 1920-yili Koliforniya politsiyasi xodimi Jon Larson tomonidan ishlab chiqilgan. U yaratgan qurilma bir vaqtning o'zida qon bosimi, puls, nafas olishni o'lchash imkoniyatiga ega bo'lgan. 1926-yili Larsonning shogirdi apparatga yangi kanalni kiritib uni yanada takomillashtirdi. Poligraf apparati fikrlarni o'qimaydi faqat fiziologik faollikni va uning parametrlari o'zgarishini qayd qilib boradi. U yolg'onni emas balki ma'lum bir ehtimollik bilan yolg'onni ko'rsatishi mumkin bo'lgan hayajonni ochib beradi. Ilmiy, qat'iy standartlashtirilgan psixologik testlardan farqli o'laroq poligraf tekshiruvini uchun savollarning jinoyatchilik turiga qarab taxminiy to'plami shakllantirilgan. Poligrafolog bu savollar shablonini sodir bo'lgan hodisaga va shaxsga mostashtira bilishi kerak. Muvaffaqiyatli test o'tkazish uchun poligrafolog har doim aniq hodisa haqida kerakli reaksiyani keltirib chiqaradigan tarzda aniq savollarni tanlashi va tuzishi kerak. Keyin esa poligrafolog turli odamlarda turlicha vaziyatlarda yuzaga keladigan fiziologik yo'nalishlarni to'g'ri talqin qila olish malakasiga ega bo'lishi talab etiladi. Apparatdan turli sohalarda foydalanish mumkin. Kadrlarni tanlashda poligrafdan foydalanishning maqsadga muvofiqligi hali isbotlanmagan. Ko'pchilik odamlar apparatni yolg'onni aniqlashiga shubha bilan qaraydi. Chunki ishga kirishni judayam xohlagan nomzodlar ko'pincha noto'g'ri baholanishdan qo'rqishadi bu qo'rquvlari esa yolg'on belgisi sifatida tavsiflanadi. Yana bir sabab tanlov jarayonida ish beruvchilar nomzodning umumiy ma'lumotlariga qiziqishadi. Ammo poligraf bu savollarga javob bera olmaydi. Chunki uning yordami bilan faqat aniq vaqtlarda sodir bo'lgan voqealar haqida aniq savollar berish mumkin. Biroq savollar qanchalik umumlashtirilsa noto'g'ri natija olish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. Poligrafiya tekshiruvini nomzodning o'tmishi haqida ma'lumot berishi mumkin ammo ish beruvchi uchun nomzodning kelajakdagi xatti-harakatlari muhimroq. Bundan tashqari shaxsning o'timishda kuzatilmagan nojo'ya xulq-atvori kelajakda ham yuzaga kelmaydi deb kafolat berib bo'lmaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, kadrlarni tanlashda poligraf tekshiruvini o'tkazish maqsadga muvofiq emas va biz kutgan natijamizga erisha olmaymiz.

Shu o'rinda poligrafni aldash mumkinmi degan savol tug'iladi? Ayg'oqchilar va razvedka xodimlari poligrafni aldashga o'rgatilgan. AQSH Markaziy Razvedka boshqarmasi xodimi A. Ames ko'p yillar mobaynida Sobiq Ittifoqqa sirlarni sotib kelgan. Bu orada esa bir necha bor poligraf tekshiruvini chetlab o'tishga muvaffaq bo'lgan. Bundan tashqari yolg'on gapirishga doimiy odatlangan kishilar ham apparatni bemalol aldashi mumkin. Psixopatlar ham sog'lom odamlarga qaraganda yolg'on detektorini oson alday oladilar. Yolg'on gapirganda psixopatlar va patalogik yolg'onchilarda qo'zg'alish darajasi kuzatilmaydi, shuning uchun ularda yolg'onni aniqlash imkoniyati kam. Ketma -ket vaxshiy qotillik seriyalari muallifi Gari Redgvey gumon qilinuvchi sifatida yolg'on aniqlash testidan o'tib, politsiyaga aybsizligini isbotlagan. Bu shaxs psixopat xisoblanib, politsiyada o'ziga qarshi hech bir dalil yo'qligiga ishonchi testdan muvaffaqiyatli o'tishiga sabab bo'lganini aytib o'tgan. Psixopatlar va sog'lom odamlar o'rtasidagi bu farqdan tashqari shaxsning introvert

⁶² O'z. Res. IIV Akademiyasi "Xizmat faoliyatini tarbiyaviy psixologik ta'minlash faoliyatida axborot texnologilari" darslik

yoki ekstrovertligi ham poligraf tekshiruvida alohida ahamiyatga ega. Shu o'rinda quyidagi shaxslarda poligraf tekshiruvini o'tkazish maqsadga muvofiq emas :

- 14 yoshdan kichik bo'lgan bolalarda ;
- ruhiy kasal, jismoniy va ruhiy charchoq belgilari mavjud bo'lgan shaxsda;
- kuchli psixotrop moddalarni iste'mol qilgan shaxsda ;
- yurak qon-tomir kasalliklariga duchor bo'lgan shaxslarda;
- alkogol yoki giyohvandlik moddasini iste'mol qilgan shaxslarda;
- homilador ayollarda⁶³.

Poligrafni qo'llash mumkin bo'lgan sohalardan biri sud-tergov faoliyatidir. Tergov protsessi davomida haqiqatni aniqlash muhim ahamiyatga ega bo'lib ushbu jarayonda inson huquqlarini ta'minlash ustuvor vazifa hisoblanadi. BMT ning 1984-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Qiynoqlarga solishga va muomalada bo'lish va jazolashning boshqa shavqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni tahqirlovchi turlariga qarshi konvensiya"⁶⁴da "qiynoq"qa alohida ta'rif berilgan. Haqiqatni aniqlash jarayonida esa turli qonunbuzarliklarni oldini olish uchun "inson omili"ning ta'sirini kamaytirish va turli innovatsion qurilmalardan foydalanish lozim. Yolg'on detektor – psixodiagnostik tadqiqot hisoblanadi. Odam yolg'on gapirganda stressga duch keladi va bu tanadagi fiziologik o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Tana esa bu stressga javob beradi va bu reaksiyani asboblari yordamida aniqlash mumkin. Detector puls, bosim, nafas olish chuqurligi, tana harorati, namligi, ovoz tembrlari, tananing mikro harakatlari ya'ni mushak qisqarishlari yoki titroq, ko'z harakatlari va boshqa psixosomatik hodisalarni tekshira olish qobiliyatiga ega. Apparat tizimda foydalanish uchun yuqorida keltirilgan bir qancha qulayliklarga ega. Ammo bizda mutaxassislar yetishmovchiligi muammosi bor. Bugungi kunda O'zbekiston hududida mazkur apparatdan to'laqonli foydalana olish malakasiga ega atigi 3 nafar mutaxassis bor. Agar mutaxassislarni tayyorlash muammosi bartaraf etilsa, ushbu qurilmani tergov faoliyatida qo'llash ish samaradorligini oshiradi va xalqaro andozalarga mos ravishda inson huquqlarini ta'minlash imkoniyatini beradi. Chunki "haqiqatni aniqlash" har doim ham adolatlilik va halollik asosida amalga oshiriladi deb ayta olmaymiz. Shu sababli tergov amaliyotini tergov psixologiyasi bilan bog'lash lozim. Gumon qilinuvchining psixologik portretini yaratish, psixologik suhbat o'tkazish, shaxs psixikasini o'rganish orqali u sodir etgan jinoyatni fosh etish davri keldi. Chunki inson huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Xulosa o'rnida aytish joizki, axborot texnologiyalari tobora rivojlanib borayotgan zamonamizda har bir sohada xususan IIO lari faoliyatida raqamli texnologiyalardan, texnologik qurilmalardan foydalanishni davrning o'zi talab qilmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi va amaliyot fikrimizning yaqqol dalilidir.

1. BMT "inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi" ;
2. O'z. Res. Jinoyat kodeksi 235-modda ;

⁶³O'z.Res. Oliy Sud Plenumining jinoiy, jinoyat-protsessual va ma'muriy huquqbuzarliklarga oid qarorlari to'plami 1996-2022 yillar

⁶⁴ BMT "Qiynoqlarga solishga va muomalada bo'lish va jazolashning boshqa shavqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni tahqirlovchi turlariga qarshi konvensiya "

3. BMT "Qiynoqlarga solishga va muamolada bo'lish va jazolashning boshqa shavqatsiz , g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni tahqirlovchi turlariga qarshi konvensiya " ;
4. O'z.Res. IIV Akademiyasi "Xizmat faoliyatini tarbiyaviy psixologik ta'minlash faoliyatida axborot texnologilari " darslik
5. O'z.Res. Oliy Sud Plenumining jinoiy , jinoyat-protsessual va ma'muriy huquqbuzarliklarga oid qarorlari to'plami 1996-2022 yillar.